TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrukh Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDYIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abdusalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDYIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATIONS SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Baxramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletalieva Aymereke Sagieva	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	



O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI

Tursunova Nazokat Tolibjonovna

Makroiqtisodiyot va hududiy tadqiqotlar institute doktoranti, PhD

Email: bashshaaa@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda innovatsion faoliyatning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda institutsional-huquqiy asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsiya tushunchasining nazariy asoslari, uning turlari (texnologik, marketing, tashkiliy innovatsiyalar) va iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda innovatsion infratuzilmaning shakllanish evolyutsiyasi, davlat siyosati, strategiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki asosida innovatsion rivojlanish mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida innovatsion faoliyatning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirishda infratuzilma, institutsional mexanizmlar va davlat qo'llab-quvvatlash choralarining muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion infratuzilma, texnologik innovatsiyalar, marketing innovatsiyalari, tashkiliy innovatsiyalar, innovatsion siyosat, startup ekotizimi, texnopark, R&D, iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article systematically analyzes the formation, stages of development and institutional and legal framework of innovative activity in Uzbekistan. The study covers the theoretical foundations of the concept of innovation, its types (technological, marketing, organizational innovations) and its importance in economic sectors. Also, the evolution of the formation of innovative infrastructure in the country, mechanisms of innovative development based on state policy, strategies and the participation of international financial institutions are studied. As a result of the study, the importance of infrastructure, institutional mechanisms and state support measures in enhancing the impact of innovative activity on regional economic growth is substantiated.

Key words: innovation, innovative activity, innovative infrastructure, technological innovations, marketing innovations, organizational innovations, innovative policy, startup ecosystem, technopark, R&D, economic growth, regional development.

Аннотация. В данной статье систематически анализируются формирование, этапы развития и институционально-правовые рамки инновационной деятельности в Узбекистане. Исследование охватывает теоретические основы концепции инноваций, их виды (технологические, маркетинговые, организационные инновации) и их значение в экономических секторах. Также изучается эволюция формирования инновационной инфраструктуры в стране, механизмы инновационного развития на основе государственной политики, стратегий и участия международных финансовых институтов. В результате исследования обосновывается важность инфраструктуры, институциональных механизмов и мер государственной поддержки в повышении влияния инновационной деятельности на региональный экономический рост.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, инновационная инфраструктура, технологические инновации, маркетинговые инновации, организационные инновации, инновационная политика, стартап-экосистема, технопарк, НИОКР, экономический рост, региональное развитие.



KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda innovatsiyalar hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik darajasi nafaqat tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish hajmi bilan, balki bilim, texnologiya va innovatsion faoliyat darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi qonunlar, davlat strategiyalari va dasturlari qabul qilinib, innovatsion infratuzilma elementlari bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi, keyinchalik uning faoliyatining takomillashtirilishi, texnoparklar, startap inkubatorlari va akseleratorlar tizimining joriy etilishi mamlakatda innovatsion ekotizimni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Biroq, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish, innovatsion infratuzilma elementlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish hamda innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini chuqur tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, innovatsion faoliyatning iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi ahamiyati, uning hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi hamda innovatsion infratuzilmaning shakllanish bosqichlarini kompleks o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekistonda innovatsion faoliyat va innovatsion infratuzilmaning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun innovatsiya tushunchasining nazariy asoslari, uning turlari, innovatsion siyosat va infratuzilmaning rivojlanish evolyutsiyasi hamda iqtisodiy ahamiyati o'rganildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Klassik iqtisodiy nazariyalarda texnologik omil ishlab chiqarishning qo'shimcha elementi sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida talqin qilina boshladi. Ayniqsa, Joseph Schumpeter innovatsiyani "ijodiy buzilish" jarayoni sifatida izohlab, yangi mahsulotlar, texnologiyalar va biznes modellarning paydo bo'lishi iqtisodiy tizimda sifat jihatidan yangi bosqichni yuzaga keltirishini asoslab bergan.

Endogen o'sish nazariyasida innovatsiyalar va bilimlar iqtisodiy rivojlanishning ichki omillari sifatida qaraladi. Paul Romer ilmiy tadqiqotlar va texnologik taraqqiyot uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy manbai ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Robert Lucas inson kapitali va bilimlar akkumulyatsiyasi orqali innovatsion jarayonlarning kuchayishini izohlaydi. Ushbu yondashuvlar innovatsion infratuzilma va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi masalasi ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Christopher Freeman milliy innovatsion tizim tushunchasini ishlab chiqib, davlat, ilmiy muassasalar va biznes subyektlarining o'zaro hamkorligi innovatsion rivojlanishning asosiy sharti ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Bengt-Åke Lundvall innovatsion tizimlarda bilim almashinuvi va institutsional muhitning roliga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuvlar innovatsion infratuzilmaning kompleks xarakterga ega ekanligini va uning samaradorligi ko'p darajada institutsional muhitga bog'liqligini ko'rsatadi.

Zamonaviy empirik tadqiqotlarda innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik turli metodologiyalar asosida tahlil qilinadi. Philippe Aghion va Peter Howitt tomonidan ishlab chiqilgan modellarda innovatsion faoliyat iqtisodiy o'sishning asosiy determinanti sifatida ko'riladi. Ularning tadqiqotlarida innovatsiyalar orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va iqtisodiy raqobatbardoshlikning kuchayishi asoslab beriladi.

O'zbekiston sharoitida innovatsion faoliyat va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. Milliy iqtisodiyotda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, jumladan, texnoparklar, innovatsion markazlar va startap ekotizimlarni qo'llab-quvvatlash choralari iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun moliyaviy resurslar, inson kapitali va institutsional islohotlarning muhimligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga ajratilayotgan mablag'lar yuqori darajada bo'lib, bu innovatsion faoliyatning intensivligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston uchun innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, mazkur tadqiqotda O'zbekistonda innovatsion infratuzilmaning 1998–2025-yillar kesimidagi evolyutsion rivojlanish bosqichlari tizimlashtirildi, innovatsion faoliyatning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha iqtisodiy ahamiyati kompleks baholandi hamda innovatsion rivojlanishning huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy mexanizmlari yagona tizim sifatida integratsiyalandi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda startap ekotizimi, texnoparklar va xalqaro grantlar roli tizimli tahlil qilinib, innovatsion faoliyatning iqtisodiy o'sishga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining 2019-yilning 29-oktabridagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son¹ Qonuni ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida huquqiy asoslarni belgilaydi hamda ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash yo'llari, ilmiy tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlari ko'rsatilgan. Innovatsiyalar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 2020-yilning 24-iyulidagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son² Qonuniga ko'ra:

innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma;

innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat;

Innovatsiyalarning turlari: texnologik innovatsiyalar (mahsulotga oid innovatsiyalar) – texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar;

texnologik innovatsiyalar (jarayonga oid innovatsiyalar) – texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta'lim usullarini ishlab chiqish va joriy etishga, shuningdek, texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar;

marketingga oid innovatsiyalar – mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o'zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar;

tashkiliy innovatsiyalar – biznesni tashkil etish va yuritish, ish o'rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalardir (1-jadval).

1-jadval. Innovatsiya turlari va qo'llaniladigan sohalar³

Innovatsiya turi	Innovatsiya mazmuni	Asosiy mahsulot va faoliyat turlari
Texnologik innovatsiyalar	Mahsulot innovatsiyasi (Yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulotlar yaratish)	Yangi sanoat mahsulotlari, IT mahsulotlar, energiya tejankor mahsulotlar, farmatsevtika mahsulotlari, innovatsion qishloq xo'jaligi mahsulotlari, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar
		Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, robotlashtirilgan uskunarlar, ERP/SSADA tizimlari, raqamli ishlab chiqarish platformalari, zamonaviy texnologik jihozlar
Marketing innovatsiyalari	Mahsulotni bozorga chiqarish va sotish usullarini takomillashtirish	Brending, qadoqlash dizayni, elektron savdo platformalari, raqamli marketing, reklama kompaniyalari, CRM tizimlari, yangi savdo kanallari, eksport marketing
Tashkiliy innovatsiyalar	Boshqaruv va korxona faoliyatini tashkil etish tizimini modernizatsiya qilish	ISO standartlarini joriy etish, KPI tizimi, loyiha boshqaruvi, HR tizimlari, elektron hujjat aylanishi, sifat menejmenti, xodimlarni qayta tayyorlash

Innovatsion infratuzilma innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi birlashmalarining majmui hisoblanadi. 25-moddada esa innovatsion infratuzilmaning subyektlari berilgan. Innovatsion infratuzilmaning subyektlariga quyidagilar kiradi:

1 <https://lex.uz/docs/-4571490>

2 <https://lex.uz/docs/-4910391>

3 Muallif ishlanmasi



- innovatsion texnologik park;
- texnologiyalar transferi markazi;
- innovatsion klaster;
- venchur tashkiloti;
- innovatsiya markazi;
- tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, boshqa shaxslar, kichik va yirik korxonalar ham innovatsion infratuzilmaning subyektlari bo'lishi mumkin (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda innovatsion infratuzilmaning shakllanishi va rivojlanishi (yillar kesimida)⁴

Yil	Infratuzilma elementi	Qisqacha mazmun
1998	Huquqiy zamin	Innovatsion investitsiyalarni qamrab oluvchi investitsiya siyosati shakllandi, innovatsion infratuzilma uchun dastlabki huquqiy asos yaratildi.
2002	Patent infratuzilmasi	Ixtiro, foydali model va sanoat namunalarini patentlash orqali innovatsiya natijalarini huquqiy muhofaza qilish tizimi joriy etildi.
2008	Sanoat-innovatsiya aloqasi	Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlar kuchaytirildi.
2017	Davlat innovatsion boshqaruvi	Innovatsion Rivojlanish Vazirligi tashkil etilib, innovatsion infratuzilmani markazlashgan holda boshqarish boshlandi.
2017	Innovatsion jamg'arma	Innovatsion g'oyalar va startaplarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi shakllandi.
2017	Inkubator va akseleratorlar	Ilg'or texnologiyalar markazi orqali startaplarni rivojlantirish infratuzilmasi yaratildi.
2017	Texnopark	Yashnobod innovatsion texnologiyalar parki orqali innovatsion korxonalarni joylashtirish va qo'llab-quvvatlash ta'minlandi.
2018	Strategik infratuzilma	Innovatsion rivojlanish strategiyasida texnoparklar, klasterlar va innovatsiya markazlarini rivojlantirish belgilandi.
2019	Ilmiy infratuzilma	Ilmiy tashkilotlar va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari mustahkamlandi.
2019	Raqamli infratuzilma	IT-Park tashkil etilib, raqamli startaplar va IT-xizmatlar ekotizimi shakllandi.
2020	Innovatsion infratuzilma belgilanishi	"Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunda innovatsion infratuzilma va uning subyektlari aniq belgilab berildi.
2019-2020	OTMlarda innovatsiyalar yaratish va tijoratlashtirish	Oliy ta'lim muassasalari huzurida innovatsiya markazlari, texnologiyalar transferi bo'limlari va startap inkubatorlari tashkil etildi; ilmiy ishlanmalarni patentlash, litsenziyalash va bozorga chiqarish mexanizmlari joriy etildi.
2022	Milliy innovatsion tizim	2022–2026 strategiyasida innovatsion infratuzilmani hududiy darajada rivojlantirish ustuvor yo'nalish etib belgilandi.
2022	STI Policy 2022–2030	Ilm-fan, texnologiya va innovatsiya infratuzilmasini integratsiyalash va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish belgilandi.
2023	Institutsional optimallashtirish	Innovatsion rivojlanish agentligi tashkil etilib, infratuzilmani boshqarish samaradorligi oshirildi.
2021-2023	Xalqaro moliyaviy infratuzilma	Jahon banki loyihalari doirasida R&D va innovatsion grant mexanizmlari joriy etildi.
2024	Venchur va startap infratuzilmasi	Startap va venchur moliyalashtirish ekotizimini rivojlantirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi.
2024	Ijodiy innovatsion infratuzilma	Ijodiy iqtisodiyot sohasida innovatsion markazlar va parklar uchun imtiyozlar joriy etildi.
2025	Hududiy agrar innovatsiya	BMT Taraqqiyot dasturi va YEI loyihalari doirasida hududiy agrar innovatsion guruhlar tashkil etildi.
2030 (maqsad)	Barqaror innovatsion infratuzilma	Texnoparklar, klasterlar, venchur tashkilotlar va innovatsiya markazlari tarmog'ini to'liq shakllantirish reja qilingan.

Keyingi bosqichda innovatsion faoliyat turlari va ularning iqtisodiy ahamiyati o'rganildi. Innovatsion faoliyat bu yangi g'oyalar, ilmiy tadqiqotlar natijalari, texnologiyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratish, joriy etish va ularni bozorga chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy, ilmiy va tashkiliy jarayondir. Mintaqada innovatsion faoliyat quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

4 Muallif ishlanmasi



Yangi g'oyalar, ilmiy tadqiqotlar natijalari, texnologiyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratish;
 Yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish;
 Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish;
 Startaplar, texnoparklar va inkubatorlar faoliyatini rivojlantirish;
 Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion menejmentni joriy qilish hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval. Innovatsion faoliyat turlari ularning iqtisodiy ahamiyati⁵

№	Iqtisodiy faoliyat turi	Iqtisodiy ahamiyati
1.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Agrar innovatsiyalar oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati va qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirishga hissa qo'shadi; R&D (ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish) va agrotexnologik modernizatsiya iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
2.	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	Mineral resurslardan samarali foydalanish, eksport kirimlarini oshirish va energetik samaradorlikni yaxshilash uchun texnologik innovatsiyalar muhim; avtomatlashtirilgan va raqamli kon ishlari tavakkalchilikni kamaytiradi.
3.	Ishlab chiqarish sanoati: yuqori texnologiyali	Yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, raqobatbardoshlikni oshirish va eksport salohiyatini yaxshilash; STEM bazali kadrlar va R&D (ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish) markazlari iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.
	<i>o'rtacha yuqori texnologiyali</i>	Mahalliy va eksport bozori uchun innovatsion mahsulotlarni yaratish; yangi ish o'rinlari va texnologik ko'nikmalar orqali mahsuldorlikni oshirish.
	<i>o'rtadan past texnologiyali</i>	Xarajat samaradorligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish hajmlari va mahalliy talabni qondirish; texnologiya transferlari orqali malakali kadrlar tayyorlanadi.
	<i>past texnologiyali</i>	Mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznes uchun ish o'rinlari yaratish; iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi.
4.	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	Energiya va kommunal xizmatlar samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini barqaror ta'minlash; Smart Grid va energiya tejovchi texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
5.	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	Sog'liqni saqlash, ekologik barqarorlik va ishlab chiqarish tarmoqlari uchun asosiy infratuzilmani yaratish; innovatsion tizimlar chiqindilarni qayta ishlash va suv resurslarini samarali boshqarish imkonini beradi.
6.	Qurilish	Infratuzilmani rivojlantirish, transport va uy-joy sektorini modernizatsiya qilish; innovatsion qurilish texnologiyalari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.
7.	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	Ishlab chiqarish va iste'mol bozorini birlashtirish, raqamli savdo va logistika orqali iqtisodiy aylanmani oshirish; innovatsion xizmatlar yordamida bozor samaradorligi oshadi.
8.	Tashish va saqlash	Tovar va xizmatlarning uzluksiz yetkazib berishini ta'minlash, logistika va transport tizimlarini optimizatsiya qilish; innovatsion transport texnologiyalari xarajatlarni kamaytiradi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.
9.	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Turizm va xizmat sektorini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish; innovatsion xizmatlar mijoz qoniqishini va daromadni oshiradi.
10.	Axborot va aloqa	Raqamli iqtisodiyotning asosi, innovatsion platformalar va IT xizmatlar orqali samaradorlikni oshirish; kommunikatsiya tizimlari barqarorligini ta'minlash iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.
11.	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	Moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish, investitsiya oqimini rag'batlantirish; fintech va sug'urta innovatsiyalari riskni kamaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
12.	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	Investitsiya va kapital bozorini rivojlantirish; innovatsion xizmatlar orqali mulk qiymatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.
13.	Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	Iqtisodiyot uchun bilim va kadrlar salohiyatini rivojlantirish; R&D (ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish) va konsalting xizmatlari innovatsion mahsulotlar va texnologik transferga hissa qo'shadi.
14.	Boshqaruv va yordamchi xizmatlar ko'rsatish faoliyati	Tashkilot va tadbirkorlik jarayonlarini optimizatsiya qilish; innovatsion BPO va IT xizmatlari ishlab chiqarish va xizmat samaradorligini oshiradi.
15.	Ta'lim	Inson kapitalini rivojlantirish, kadrlar malakalari va innovatsion ishlab chiqarish uchun asos yaratish; STEM va oliy ta'lim innovatsiyalar asosida iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

5 Muallif ishlanmasi



16.	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish	Sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi va ijtimoiy barqarorlik; telemeditsina va innovatsion tibbiyot texnologiyalari ishlab chiqarish va mehnat samaradorligini qo'llab-quvvatlaydi.
17.	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	Madaniy industriya va turizmni rivojlantiradi. Media va VR texnologiyalari orqali ijtimoiy va iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.
18.	Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari	Innovatsiya imkoniyatlarini kengaytirish; startaplar va kichik biznes innovatsiyalari orqali iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllangan va takomillashib bormoqda. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion infratuzilma elementlari (texnopark, inkubator, klaster) tizimli rivojlanmoqda. Davlat tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirilgan.

Innovatsion faoliyat turlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida qo'llanilmoqda. Startap ekotizimi va venchur moliyalashtirish tizimi shakllanish bosqichida. Xalqaro moliyaviy institutlar innovatsion rivojlanishda muhim rol o'ynamoqda. Innovatsion siyosatda inson kapitaliga e'tibor kuchaygan. Raqamli iqtisodiyot innovatsion rivojlanishning yangi bosqichini belgilab bermoqda. Kelgusida innovatsion infratuzilmani hududiy darajada chuqurlashtirish iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yilning 29-oktabridagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-4571490>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yilning 24-iyulidagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-4910391>
3. National Science, Technology and Innovation Policy of Uzbekistan (2022–2030).
4. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
5. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy, 1990. – Vol. 98, No. 5.
6. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics, 1988. – Vol. 22, No. 1.
7. Freeman C. Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter Publishers, 1987.
8. Lundvall B.-Å. National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning. – London: Anthem Press, 2010.
9. Aghion P., Howitt P. Endogenous Growth Theory. – Cambridge: MIT Press, 1998.
10. OECD. Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. – Paris: OECD Publishing, 2018.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисида. 2023-09-11, ПФ-158-сон.
12. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги маълумотлари. – Тошкент, 2024.
13. World Bank. Innovation Policy: A Guide for Developing Countries. – Washington DC: World Bank, 2010.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
